

HUQUQSHUNOSNING NUTQ ODOBI

Ravshanbekova Ozoda Murodjon qizi

Talaba, Toshkent davlat yuridik universiteti

ozodaravshanbekova33@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bevosita nutq odobining jamiyatdagi oʻrni huquqshunos faoliyatidagi ahamiyati bilan bogʻlangan holda yoritib beriladi. Shuningdek, huquqshunos shaxslarning oʻzaro munosabatlaridagi nutq etikasini rivojlanishi uchun qilingan, qilinayotgan va qilinishi kerak boʻlgan asosiy masalalar haqida soʻz boradi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье непосредственно рассматривается роль речевого этикета в обществе в связи со значением юридической практики. Также рассматриваются ключевые вопросы, которые делались, делаются и должны быть сделаны для развития речевого этикета в правоотношениях.

ABSTRACT

This article directly discusses the role of speech etiquette in society in relation to the importance of legal practice. It also discusses the key issues that have been done, are being done and should be done to develop speech etiquette in legal relationships.

Til- millatning ma'naviyati, ma'rifati va salohiyat darajasini oʻzida aks ettiruvchi koʻzgu misolidir. Bir davlatning urf-odati, anʼanalari, tarixi va istiqboli ana shu tilda jonlanadi. Til oʻz aksini shaxslararo boʻladigan nutq jarayoni, turli xil rasmiy hujjatlar, badiiy asarlar, ilmiy kitoblarda topadi. Yuqorida keltirganlarimizdan biri - nutq jarayonidagi madaniyat va odob saviyasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Mustaqilligimizning ilk yillaridanoq oʻzbek tilini rivojlantirish, uni mamlakat ichki va tashqi hayotida faol muloqot vositasiga aylantirish borasida keng koʻlamda ishlar olib borilishiga qaramasdan, kundalik hayotimizda nutqimiz jarayonida tilga nisbatan behurematlik holatlari ham uchrab turmoqda va bu keng tus olmoqda.

Avvalo, nutq madaniyati nima ekanligi va uning bir necha talablariga toʻxtalib oʻtamiz. Nutq madaniyati bugun yoki kecha paydo boʻlgan tushuncha emas. Uning tarqiqiyotiga boy tarixiy sivilizatsion jarayon va ming yilliklar poydevor boʻlib xizmat qilgan. Nutq va til oʻzaro uzviy tushunchalar boʻlib, har qanday davlatga tegishli boʻlgan til avvalo, shu mamlakat fuqarolarining soʻzlashuvida namoyon boʻladi. Har qanday nutq oʻzi yashayotgan zamonga va makonga, uni bevosita sodir etayotgan subʼyektlarning maʼnaviy saviyasiga mos ravishda bogʻliq boʻladi. Yuritilayotgan fikr, ilmiy manbaa, hujjat, kitob, jurnallarda ana shu mavzuga ongʻli ravishda mos va xos boʻlgan tildagi mavjud birliklardan foydalanish nutq madaniyati hisoblanadi. Nutq madaniyati, bundan tashqari, vaziyatga xolis izoh beruvchi hamda faqatgina zaruriy boʻlgan til uslublaridan foydalanishni talab etadi. Nutq odobi qoidalariga rioya etib, fikrini ifodalash uchun zaruriy boʻlgan nutqiy ifodalardan yetarlicha foydalanib, mahorat bilan soʻzlagan kishini notiq deb ataladi. Mahoratli notiq boʻlish uchun esa kishidan bir necha nutq etikalariga amal qilish talab qilinadi. Ular quyidagilar:

Oʻz fikrlarini tinglovchi yoki oʻquvchiga yetkazish jarayonida nutqiy vaziyat uchun mos keluvchi til birliklarini tanlay olish;

Ogʻzaki yoki yozma savodxonlik darajasining yuqori boʻlishi;

Notiqning oʻziga ishonchi mustahkam boʻlishi kerak. Buning uchun esa notiq oʻz nutqida olgʻa suradigan fikrga toʻla ishonch hosil qilishi lozim;

Nutq toʻliq isbot va dalillarga ega boʻlishi kerak;

Har qanday sohada ham nutqning muvaffaqiyatini oʻz sohasini bilish hal etadi. Agar notiq oʻz nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilmasa, u qanchalik sanʼatkor boʻlmasin, oʻz tinglovchisini jalb etolmaydi;

Materialni to'g'ri joylashtirish – **ekspozitsiyaga** alohida e'tibor berish lozim. Joylashtirish shunday bo'lsinki, u materialni butunlay o'zlashtirib olishga yengillik yaratsin. Buning uchun esa nutqni aniq qismlarga bo'lish lozim. [1]

Ammo, hozirgi vaqtda notqlik qilayotgan kishilar yuqorida keltirilgan etikalardan aksariyatlariga amal qilmaydilar. Nutq jarayonida begona til lug'atiga mansub bo'lgan so'zlardan foydalanadilar. Bu muammoning birlamchi sababi kundalik hayotimizdagi so'zlashuv jarayonlari deb bilaman. Chunki kishining ko'p davr mobaynida o'rganib, moslashib qolgan odatlarini bartaraf etishi juda qiyin. Yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, "O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas" qabilidagi jarayon yaqqol vaziyatni ochib bera oladi. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, "vabshe" (вообще), "tolka" (только), "safsem" (совсем), "tem bole" (тем более) kabi sanog'ining oxiri ko'rinmay qolgan rus tiliga mansub bo'lgan so'zlarni nutqda bemalol qo'llanishi juda achinarli holat hisoblanadi. Bundan tashqari, vulgarlar, jargonlar va parazit so'zlardan foydalanish omma orasida, kundalik muloqot jarayonida ildiz otib bo'lgan. Ayan shu va shu kabi holatlar o'zbek tiliga nisbatan behurmatlik hisoblanadi va tilga katta zarar keltiradi. Natijada, o'sib kelayotgan yosh avlod ana shunday vulgar va chet tili so'zlarini o'z ona tilisining birliklari sifatida qabul qiladi. Bu esa o'zbek tilining kelajagiga tahdidli holatlarning kichik namunasidir.

Bu zararli odat shunday kuchli ildiz otganki, har qanday soha vakillari "zamonaviy nutq etikasi"ga o'rganib qoldilar. Huquqshunos, yurist, advokat va prokurorlar ham bundan mustasno emas. Mamlakat hayotida juda muhim rol o'ynaydigan, beixtiyor barcha ishlari oddiy xalq bilan olib boriladigan bunday mas'uliyatli kasb egalari ham o'z nutqlariga shunday illatlardan yuqtirib olganlar. Aslidachi, qanday bo'lishi kerak edi?

Huquq sohasida ham ta'sirchan nutqning, notqlikning o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. Zero, sohaning qonun ijodkorligi, sud, prokuratura, advokatura, huquqiy profilaktika, huquqiy targ'ibot va tashviqot singari turli yo'nalishlarida faoliyat olib boruvchi huquqshunos-mutaxassislarning asosiy qurollaridan biri ta'sirchan nutq, san'at darajasidagi notqlik hisoblanadi. Ular shu orqali o'zlarining mashaqqatli faoliyati davomida topgan dalillari, asoslari, xulosalari, hukmlari, haqiqatlariga boshqalarni ishontiradilar, ularning e'tirofi va e'zoziga erishadilar. Ayniqsa, xorijiy kinokompaniyalar tomonidan suratga olingan mashhur filmlardagi prokurorning, advokatning, sudyaning katta zallardagi nutqlaridan kimlar ta'sirlanmagan deysiz. Qolaversa, mazkur filmlarning ko'pchiligi hayotiy voqealar asosida suratga olinganini ham unutmaslik kerak.[2]

Tilshunos olimlar S.Usmonov va Sh.Ziyamuxamedovalarning fikricha, masalan, prokuror sud jarayonida ayblov nutqi so'zlar ekan, avvalo, o'zining madaniyatli inson ekanini ko'rsatishi talab etiladi. U har qanday sharoitda ham taraflardan birontasiga do'q-po'pisa, tahdid qilishga haqli emas. Hatto sudlanuvchi retsidiv jinoyatchi bo'lgan taqdirda ham, uni kamsituvchi, masxaralovchi yoki kesatiq, qochirim so'z va iboralarni aslo qo'llamasligi lozim.[3] Shu bilan birga advokatlar ham yurisprudensiyani qanchalik chuqur o'zlashtirgan bo'lsalar, yuridik til me'yorlarini shu darajada yaxshi bilishlari lozim. Yuristlar va huquq sohasi vakillarining ishlari faqatgina jinoyatlarni ochish, hujjatlarni tayyorlash, qonunlarni tayyorlash kabi ishlar emas, balki, aholi orasida huquqiy targ'ibot- tashviqot ishlarini olib borish, biror bir huquqqa oid tadbirda ajoyib nutq so'zlash kabilarni ham o'z ichiga oladi. Ana shunday vaziyatlarda yuristlardan nutq odobiga amal qilish talab etiladi. Quyida esa yurist nutqi uchun qo'yiladigan talablar keltirilgan:

1. Beriladigan vaqtni hisobga olish.
2. Ma'ruzaning maqsadi va asosiy g'oyasini belgilab olish.
3. Auditoriyani e'tiborga olish.
4. Nutq so'zlashni mashq qilish.
5. Nima kiyishni oldindan rejalashtirish.[4]
6. Nutq jarayonida juda ko'p darajada huquqiy terminologiyalardan foydalanib yubormaslik.
7. Nutq paytida zarurat bo'lmasa o'zga til lug'atlariga murojaat etmaslik.

Yuristlar nutqi ham o'ziga xos malaka, og'zaki nutq shakllarini egallashni talab qiladi. Zero, rus notig'i **A.F.Koninning** fikriga ko'ra, "so'zamollik" va notqlik bir xil tushuncha emas. Oddiy "so'zamollik"dan farqli o'laroq, notqlik san'ati savodli, ishonarli, mantiqan fikrlashda namoyon bo'lib, bu darajaga inson ko'p izlanishlar, bilim va tajribalar asosida erishadi.

Bugungi kunda tilimizning sofliğini saqlash uchun bir qancha qonun- hujjatlari qabul qilingan. Xususan, **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4- moddasida** shunday deyiladi:

"O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi." [5]

Mana shu moddaga hamohang ravishda qonunchiligimizda davlat tili to'g'risida turli qonunlar qabul qilingan. Masalan,

"O'zbekiston Respublikasi davlat tili haqida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun;

"O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi qonun;

"O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni;

"Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni;

"Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risidagi Prezident qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qarori;

kabi juda ko'p miqdorda qonun hujjatlari qabul qilingan. Yuqorida keltirganlarimizni shu paytgacha ona tilimizni asrash uchun qilingan ishlar deb belgilasak, bundan keyin ham ana shu qonun hujjatlarini ijrosini ta'minlashga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz zarur deb o'ylayman.

Xulosa o'rinda esa, o'z taklif va mulohazalarimni keltirib o'taman. Birinchidan, smartfonlar uchun moslashtirilgan, turli imlo va izohli lug'at qoidalariga tayangan, o'yinlar shaklidagi ilovalarni dasturchilar tomonidan tayyorlash. Ikkinchidan, turli yosh qatlamlari orasida notiqlik musobalarini tashkil etish va g'oliblarni munosib rag'batlantirish. Uchinchidan, jamoat joylariga, transport vositalariga imlo qoidalarini infografika shaklida tayyorlangan e'lonlar ko'rinishida yopishtirish. Mana shunday kichik tashviqotlar bilan tilimizning sofliги uchun katta foydalar keltirish umidida maqolamizni yakunlaymiz. *Zero, tilga e'tibor – elga e'tibor.*

Foydalanilgan manbaalar:

1. Jo'raev T.T., Halimov S.G. Nutq madaniyati. O'quv qo'llanma. Samarqand: TIBBIYOT KO'ZGUSI, 2021. 21-bet
2. <https://uz.scienceforming.com>
3. <http://distant.tsul.uz>
4. Ивакина Н. «Основы судебного красноречия» (Риторика для юристов). Учебное пособие, 3-е издание. – М.: Норма: ИНФРА-М, 2011. 14-67 с.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.